



Received: June 3, 2023
Accepted: June 23, 2023
Available online: June 25, 2023

Gulandom Boqiyeva

Filologiya fanlari doktori, professor,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Iroda Kaharova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI UNDOV, TAQLID VA MODAL SO'ZLARING TARJIMADA BERILISHI

ANNOTATSIYA

Ingliz va o'zbek tillarida amalga oshirilgan bevosita yoki bilvosita tarjimalarda undov, taqlid hamda modal so'zlar ba'zan aynan saqlansa, ba'zan birini ikkinchisiga almashtirib, biri o'rnida boshqasini qo'llash yoxud asliyatda mavjud bo'lmagan so'zni qo'shish holatlari uchraydi. Ushbu maqolaning maqsadi ikki til miqyosida undov, taqlid hamda modal so'zlarni tarjima xususiyatlarini pragmatik aspektda aniqlashdan iborat.

Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima matnlarida alohida so'z turkumlarining leksik, morfologik-sintaktik, funksional-semantik, stilistik, poetik baholash vositalari, sinkretlashish holatlari namoyon bo'lishi tadqiq etildi va ikki xalq mentalitetiga xos xususiyatlar ayricha ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan isbotlandi. Natijada tahlilga tortilgan asarlardagi undov, taqlid hamda modal so'zlar ikki til miqyosida o'rganilganda, ularning turli badiiy-uslubiy vazifalari mavjudligi kuzatildi. Jumladan, adib asarlarining bevosita va bilvosita o'girilgan variantlarida qahramonlarning ruhiy holati va vaziyatini real, ishonchli, ta'sirchan yoritishda ular nutqiga hishayajon undovlari hamda taqlid so'zlar mahorat bilan singdirilganligi kuzatildi.

Xulosada undov, taqlid, modal so'zlar ijtimoiy-psixologik reaksiya manbasi bo'lib,

Gulandom Bakieva

Professor, Doctor of Science
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: info@uzswlu.uz

Iroda Kaharova

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
DSc Student, Uzbekistan State World
Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: iroda.kaharova@mail.ru

TRANSLATION OF EMOTIVE, IMITATIVE AND MODAL WORDS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

ANNOTATION

In English and Uzbek, in direct or indirect translation, exclamation, imitation and modal words are sometimes kept exactly, sometimes one is replaced by another, one is used instead of the other, or a word that does not exist in the original is used in cases of swelling occur. The purpose of this article is to determine the translation characteristics of exclamation, imitation and modal words in two languages from a pragmatic aspect.

The lexical, morphological-syntactic, functional-semantic, stylistic, poetic evaluation tools, syncretization of individual word groups in the texts translated from English to Uzbek were researched, and it was scientifically and theoretically proven that the characteristics of the mentality of the two peoples are different. As a result, when exclamation, imitation and modal words in the analyzed works were studied on a bilingual scale, it was observed that they have different artistic and stylistic functions. In particular, in the direct and indirect versions of the writer's works, it was observed that in the real, reliable and impressive coverage of the mental state and situation of the heroes, emotional exclamations and imitation words were skillfully infused into their speech.

nutqda pragmatik ta'sir etish vazifasini bajaradi. Bunda ularning konnotativ vazifasi ham yuzaga chiqadi. Undov, taqlid va modal so'zlarning konnotativ ma'nosi har bir leksemaning nutqdagi ishtiroki va turlicha munosabatlar yig'indisi sifatida yuzaga chiqadi. Ular ko'pincha juft, takror, yakka qo'llansa, modal so'zlar, asosan, yakka qo'llaniladi. Yana ularning sinonimlashishi kuzatiladi. Tarjimada ko'pincha transliteratsiya, muqobilini – ekvivalentini topish metodlari orqali beriladi.

Kalit so'zlar: undov so'zlar, taqlid so'zlar, modal so'zlar, adekvat tarjima, filologik tarjima.

In conclusion, exclamation, imitation, modal words are a source of socio-psychological reaction and perform the function of pragmatic influence in speech. In this, their connotative function also comes to light. The connotative meaning of exclamation, imitative and modal words emerges as a combination of the participation of each lexeme in speech and various relationships. They are often used in pairs, repetitions, alone, while modal words are mostly used alone. Again, their synonymization is observed. In translation, it is often given through the methods of transliteration, alternative, equivalent.

Key words: exclamatory words, imitative words, modal words, adequate translation, philological translation.

KIRISH

Tilshunoslik uchun tildagi mavqeyi naqadar muhim bo'lgan undov, taqlid va modal so'zlarning badiiy matndagi tarjimasi muammolari alohida e'tiborni tortadi, chunki har bir tildagi, jumladan, ingliz va o'zbek tillaridagi bunday so'zlar morfologik jihatdan bir-biridan tubdan farq qiladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi undov, taqlid va modal so'zlar ba'zan umumiylik kasb etadiki, bunday holda tarjimada ularning ekvivalentlarini to'g'ridan-to'g'ri belgilash, lug'atdan bevosita topish imkoni borligi kuzatiladi.

Undov, taqlid va modal so'zlar ingliz tilidan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilinar ekan, ularning ko'pincha tarjima matnida tushirib qoldirilishi yoki transliteratsiya yo'li bilan berilishi hamda noekvivalentlar orqali ifodalanishi kuzatiladi. Bunda ularning aynan ekvivalentlaridan foydalanish, asliyatdagi undov, taqlid va modal so'zlarni tarjimada muqobillari yoki boshqa so'z turkumlari vositasida ifodalash holatlari kuzatiladi.

TADQIQOT USULLARI

Undov, taqlid va modal so'zlarning ingliz tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan ingliz tiliga adekvat va ekvivalent tarjimalari ko'pincha lug'atlarda berilishiga muvofiq amalga oshiriladi. Masalan:

Aha (interjection) – aha [Butayev & Irisqulov, 2009; 527].

Ax (interjection) – ah!, oh! [Butayev & Irisqulov, 2009; 543].

Miyov – mew, miaow (cat sound) [Butayev & Irisqulov, 2009; 665].

Tarjimon o'girilayotgan matn mazmuni va sintaktik qurilishi adekvatligini ta'minlash uchun, asosan, undov va taqlidiy so'zlar tarjimasida uning asl holatini maksimal darajada saqlab qolishga harakat qiladi. Ammo bunda hosil bo'layotgan sintaktik qurilmalarning g'alizligiga olib kelmasligiga alohida e'tibor qaratiladi. Albatta, tarjimada sintaktik adekvatlikni mutlaqlashtirib yuborish ham to'g'ri bo'lmaydi, chunki bir mazmun turli sintaktik shakllar vositasida berilishi mumkin. Asosiy e'tibor kontekst mazmunini to'lig'icha bera olish, bunda tarjima tillaridagi so'zlar ma'nolarining o'zaro muvofiqligiga maksimal darajada erishishga e'tibor

qaratilishi zarur.

“Tarjima nazariyasi va amaliyotida asliyat matnidagi milliy koloritni aks ettiruvchi leksik birliklarni tarjima qilish alohida ahamiyat kasb etadi” [Vlaxov & Florin, 1980]. Undov, taqlid va modal soʻzlar shunday leksik birliklar tizimiga aloqadordir.

Taqlid soʻzlarning stilistik roli, ayniqsa, ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda ochiq koʻrinadi. Bir tildagi taqlid soʻzning ikkinchi tildan variantini topish ham qiyinchilik bilan kechadi. Ular asosan izoh yoʻli bilan tarjima qilinadi. Aytish mumkinki, matn bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinganda, ozmi-koʻpmi asliyatdagi koloritni yoʻqotadi. Tasviriy va taqlidiy hamda boshqa konseptual xarakterga ega soʻzlar tarjimasida uchun tavsiyalar tilshunos olimlar S.Vlaxov va S.Florin tomonidan atroflicha qayd qilingan [Hakimova, 2014; 199-181].

Oʻzbek tilida mavjud boʻlgan q (taq-tuq), gʻ (dagʻ-dagʻ), oʻhoʻ-oʻhoʻ (yoʻtal tovushi), huv-huv (shamol tovushi) kabi undosh va unli tovushlar ishtirokida tarkib topgan taqlid soʻzlarni ingliz tiliga shu holatda tarjima qilib boʻlmaydi. Keltirilgan misollar ichida faqat “taq-tuq” taqlidi “tuk-tuk” tarzida tarjima qilinadi. Boshqalarini esa tarjimada berib boʻlmaydi. Koʻpincha tarjimonlar ularni matndan tushirib qoldiradilar va ularni tarjimada tushirib qoldirish matnga zarar yetkazmaydi. Lekin “tuk-tuk” va “taq-tuq” tarjimada oʻzaro toʻliq muqobil variant emas. Bundan har ikki tildagi taqlidiy soʻzlar (xuddi shuningdek, undov va modal soʻzlar) lingvokulturema sifatida namoyon boʻlib, madaniy realiya sifatida koʻzga tashlanadi.

Tovushga taqlidni ifodalaydigan “bang-bang” soʻzi ingliz va oʻzbek tillarida mavjud. Shunday boʻlsa-da, amerikalik inglizzabon adib T.Drayzerning “Baxtiqaro Kerri” (“Sister Carrie”) romanidagi *Bang! Bang! Through window and door came rocks and stones* (Th.D. Sister Carrie, 328) jumlasida oʻzbek tiliga *Jiring! Taq! Vagonning oyna va eshiklariga toshlar otildi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 432) koʻrinishida oʻgʻirgan va natijada taqlid soʻzlar tarjimasida muqobilikka erishilmagan. Chunki tovushga taqlid qilishdan hosil boʻlgan “bang-bang” soʻzi davomli va zarbli tovushni bildirsa, “jiring” va “taq” soʻzlari, avvalo, bir martalik zarbni, ikkinchidan, “bang-bang”ga nisbatan sal sekinroq ovozni anglatadi.

Oʻzbek va ingliz tillarida bevosita oʻzlarining muqobil ifodalovchilariga ega taqlid soʻzlar ham mavjud. Masalan, oʻzbek tilidagi yalt-yalt tasviriy ifodasi ingliz tilida bling-bling, flash, twinkle-twinkle kabi bir necha muqobiliga ega. Ot tuyoqlari tovushini ifodalovchi dupur-dupur yoki taq-tuq soʻzlarining ingliz tilida tabdak-tabdak, tlot-tlot, toc-toc-tos, clip-clop, clippity-clop kabi bir necha variantlari mavjud.

Uy hayvonlari va qushlarning ovozlari yoki boshqa tovushlar kombinatsiyasi har bir tilda bir-biriga oʻxshab ketadi. Natijada, umumnutqda keng tarqalgan bunday taqlidlarni tarjima qilishda sezilarli qiyinchilik yuzaga kelmaydi. Biroq tabiatda uchraydigan qator boshqa tovushlar taqlidi turli tillarda turlicha ifodalanadi. Shu sababdan barcha taqlid soʻzlarning tarjimasida bir xilda olib borilmaydi [Kushnina, 2006].

V.V. Fatyuxin tasviriy va taqlidiy soʻz (onomatop)lar tarjimasida jarayoni olti

bosqichda kechishini qayd qiladi. Bular: 1) taqlid soʻzning semantik strukturasi va maʼnosini kontekstga tayangan holda aniqlash; 2) tahlil qilinayotgan taqlid soʻzning ayni kontekstdagi tarkibi va salmogʻini tarjima qilinayotgan tilda aniqlash; 3) tarjima qilinayotgan tildan taqlid soʻz muqobilini topish; 4) chet tilidagi taqlid soʻzning tarkibi va salmogʻini aniqlab, tarjima qilinayotgan tildagi taqlid soʻzning tarkibi va salmogʻi bilan solishtirish; 5) zarurat tugʻilsa, taqlid soʻzni almashtirish yoki transliteratsiya qilish; 6) tarjima yakunlangach, maʼno gʻalizliklari va semantik ziddiyatlar yoʻqligiga ishonch hosil qilish uchun matnni yana bir bor tekshirish [Fatyukhin, 2000].

Aslida, tovushlar orqali beriladigan undov, tasviriy hamda taqlidiy soʻzlar transliteratsiya usulida beriladi, ular tarjima qilinmaydi. Faqat ularda yozuv grafikasi tarjima tiliga moslashtiriladi. Tarjima qilinayotgan tilning fonetik oʻziga xosliklari, tovush va alifbo tizimi inobatga olinadi.

N.Aliboyeva fikricha, taqlidiy ifodalarni tarjimada transliteratsiya yoʻli bilan, asliyatdagi soʻzni milliy konsept yoki neologizm sifatida oʻzlashtirish, taxminiy tarjima, kontekstual tarjima kabi toʻrt xil usulda berilishi mumkin. Taqlidiy birlikni aynan taqlidiy ifoda bilan tarjima qilishning imkoni boʻlmasa, soʻzning muqobili topilmasa, uni birikma orqali berish imkoni eng toʻgʻri yechimdir [Aliboyeva, 2021; 126].

Odatda, badiiy tarjimaning adekvatligini taʼminlash uchun turli grammatik kategoriyalarni chogʻishtirma usulda oʻrganishga toʻgʻri keladi. M.Irisqulov taʼkidlaganidek, “tarjima maqsadidagi chogʻishtirish asosida bir umumiy maʼnoning ikki tildagi ifodalanish vositalarini aniqlash yotadi. Tarjima qilinayotgan matnning maʼnosini ikkinchi til vositalari orqali ifodalash tarjimaning asosiy maqsadidir” [Irisqulov, 1992; 173].

Undov, taqlid va modal soʻzlarni ingliz tilidan oʻzbek tiliga yoki oʻzbek tilidan ingliz tiliga oʻgirish jarayonida tarjimaning filologik, lingvistik va kommunikativ usullaridan birini tanlash mumkin. Bunda filologik tarjimaga muvofiq undov, taqlid va modal soʻzlar aynan asliyatdagidek (oʻzidek) berilishi lozim sanalgan.

Undov, taqlid va modal soʻzlarning lingvistik tarjimasida ularning sintaktik oʻrni yoki grammatik vazifalari emas, semantik ifoda vazifasi eʼtiborga olinsa, kommunikativ tarjimasida filologik yondashuvga asoslaniladi.

NATIJA VA MULOHAZALAR

Undov, taqlid va modal soʻzlarning baʼzan boshqa soʻz maʼnosi tarkibida ifodalanishi yoki umuman tushirib qoldirilishi ham kuzatiladi. Ishimizda bu jihatdan oʻzbek tilidan ingliz tiliga taqlid soʻzlarning tarjimada tushirib qoldirilishini Gʻ.Gʻulomning “Shum bola” qissasi misolida oʻrgandik. Masalan: “Hay-hay, bozor boʻlganda ham qanday bozor deng?” (Gʻ.Gʻ. Shum bola, 16) – “It was a very big market” (G.G. A Naughty Boy, 14).

Koʻrinadiki, asliyatda bozorning gavjumligi, katta va boyligini koʻrib hayratlangan qahramonning mana shu hayajonli his-tuygʻusini ifodalash uchun qoʻllanilgan his-hayajon undovi tarjima jarayonida tushirib qoldirilgan.

Umuman aytganda, qissaning inglizcha tarjimasida “**shilt etib**” (“*Shilt*” etib

hamyonni oldim, pulini sanab ko'rsam, sakkiz so'm-u mirikam ikki tanga ekan, yonimdan unga ikki tanga qo'shdim (G'.G'. Shum bola, 28) – *I took his wallet quickly and I counted his money in it. There were eight sums and two ringers in this wallet* (G.G. A Naughty Boy, 21)); “**chirt yumib**” (*Ortiqcha gap o'tmasligini sezgan domla ko'zini chirt yumib, bo'zani shimirib yubordi* (G'.G'. Shum bola, 29) – *Mullah felt useless and drank alcohol quickly* (G.G. A Naughty Boy, 23)); “**gurr etib**” (*Hamma gurr etib o'rnidan turib, bizga qo'l qovushtirib salom berdi* (G'.G'. Shum bola, 34) – *All of them stood up and bowed to us* (G.G. A Naughty Boy, 28)); “**gurs etib**” (*Og'ilxona tarafda bir nimaning "gurs" etib erga yiqilib, xirillay boshlagani eshitildi* (G'.G'. Shum bola, 44) – *At that time something fell down and started moaning. I heard that* (G.G. A Naughty Boy, 36)); “**sho'p etib**” (*Bir orqamga aylanib qaraganimni bilaman, bexosdan "sho'p" etib qamish-tuproq aralash pastga yiqilib tushdim* (G'.G'. Shum bola, 45) – *Having looked back, I fell down in the kitchen of a house* (G.G. A Naughty Boy, 37)); “**qiyq etib**” (*Men shu xayollarda ekanman, "qiyq" etib eshik ochildi-da, bir kishi oyoq uchi bilan yurib keldi* (G'.G'. Shum bola, 47) – *When I was looking at these stars, the door was opened and a man entered the kitchen* (G.G. A Naughty Boy, 39)); “**cho'lp**” (*Mening boshimdan bir gazcha baland joyda "cho'lp" etgan ovoz eshitildi* (G'.G'. Shum bola, 47) – *I heard the sound of a kiss* (G.G. A Naughty Boy, 39)); “**g'ilt-g'ilt etib**” (*U ham menga g'ilt-g'ilt etib tikilib turardi* (G'.G'. Shum bola, 70) – *He was also looking at me* (G.G. A Naughty Boy, 61))” kabi taqlid, “**bay-bay**” (*O'zi ham qanday eshak edi-ya, bay-bay eshagim* (G'.G'. Shum bola, 44) – *Don't worry. I don't want to kill you* (G.G. A Naughty Boy, 35)) kabi undov so'zlarning tushirib qoldirilgani ko'rinadi.

Ayni damda ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girilgan matnlar tarkibidan ham undov, taqlid va modal so'zlarning tarjimada tushirib qolishi kuzatiladi. Maqolada bu masalani T.Drayzerning “Baxtiqaro Kerri” asari misolida o'rgandik. Bunda ingliz tilidagi asliyat matnida mavjud bo'lmagan undov, taqlid va modal so'zlar tarjimada qo'shilishi mumkin. Bu, albatta, muallif uslubiga ham, asar ruhiyatning o'zgarib ketishiga ham olib keladi. Masalan: *Well, I don't know, he answered. Tipping lazily back in his chair while she stood before him* (Th.D. Sister Carrie, 193) – **Him!** *Unday bo'lsa, ochig'i, bilmayman, – u kreslo bilan o'zini orqaroq olib va Kerrining tik turganidan sira ham xijolat bo'lmay erinibgina javob berdi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 257).

Keltirilgan misolda “him” undovi “xo'sh” ma'nosini ifodalashga xizmat qiluvchi “well” so'zi o'rnida berilgan bo'lsa, “ochig'i” modal so'zi asliyatda umuman mavjud bo'lmasa-da, tarjimada qo'shilgan.

Ayniqsa, undov, modal, taqlid so'zlarning tarjimada tushirib qoldirilish holatlari ko'p uchraydi. Masalan: *Yomg'ir va bo'ron hukmida bo'lgan talay tashlandiq joylarda ham tunlari qator tuzilgan gaz chiroqlar yonib, shamolda lip-lip qilib turardi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 21) – *There were regions to the sweeping winds and rain, which were et lighted throughout the night with long* (Th.D. Sister Carrie, 11).

Yoki yana: *Ana shu sho'rvani apil-tapil ichib olib, yana tashqariga otildi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 26) – *A bowl of soup was all that she could afford, and, with this*

quickly eaten, she went out again (Th.D. Sister Carrie, 14).

Bu gaplarning asliyatida qo‘llangan **lip-lip** va **apil-tapil** kabi holatga taqlidni ifodalovchi so‘zlar tarjimada qo‘shilgan.

Ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘girilgan matnlarda ko‘pincha undov va taqlid so‘zlarning tarjimada boshqa so‘z bilan berilishi ko‘p uchraydi. Masalan: *Great big plate-glass windows and lots of clerks* (Th.D. Sister Carrie, 23) – *Deraza oynalari biram katta, odamlar g‘ij-g‘ij!* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 36).

Bunda “g‘ij-g‘ij” taqlid so‘zi “lots” (ko‘plab) miqdor ravishi bilan ifoda etilgan.

The big windows looked shiny and clean (Th.D. Sister Carrie, 26) – *Bahaybat oynali vitrinalar yaraq-yaraq qilardi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 40) gapida “yaraq-yaraq” takror taqlid so‘zi yorqin va toza tushunchalarini anglatuvchi *shiny and clean* juft so‘zlari orqali ifodalangan.

Asardagi *She went upstairs, where everything was silent* (Th.D. Sister Carrie, 40) gapida “silent” / “jim” so‘zi “**churq** etgan ovoz eshitilmaydi” degan taqlid so‘z ishtirokidagi murakkab birikma bilan ifoda etilishi natijasida ta’sirchanlik oshirilganiga guvoh bo‘lish mumkin.

Ba’zan undov, taqlid so‘zlarning o‘zini aynan bermasdan, ularning ma’nosini izoh orqali o‘g‘irish usuli ham keng uchraydi. Masalan: *He said nothing at all, but there were thoughts in the air which left disagreeable impressions* (Th.D. Sister Carrie, 43) – *Pochchasi unga lom-mim demadi, shunday bo‘lsa-da, kvartirada qandaydir norizolik ruhi vujudga keldi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 63). Bu gapda “**lom-mim**” tasviriy so‘zi bilan yasalgan “lom-mim demaslik” qo‘shma so‘z birikmasi “said nothing at all”, ya’ni “umuman hech narsa demadi” tarzida berilgan.

O‘zbek tilidan ingliz tiliga taqlid so‘zlarning tarjimada boshqa so‘z bilan berilishiga ham ko‘p duch kelinadi. Masalan: **Chur-chur** *hushtakbozlik* (G‘.G‘. Shum bola, 23) – *The scandal started* (G.G. A Naughty Boy, 18). Yoki: *Xotin dag‘-dag‘ qaltirar edi* (G‘.G‘. Shum bola, 48) – *The woman was shivering* (G.G. A Naughty Boy, 40) kabi gaplarda qo‘llangan hushtak tovushini ifodalovchi “chur-chur”, qo‘rqmoq holatini tasvirlovchi “dag‘-dag‘” taqlidiy so‘zlar o‘z o‘rnida qo‘llanmagan.

“Shum bola” asaridagi *Omon ham mening gapimga “po‘k” uchgan bo‘lsa kerak, ikki gapning birida “ha-ha-ha”, deb qo‘yar edi* (G‘.G‘. Shum bola, 83) gapi ingliz tiliga *I think Omon believed me. He was saying “aha, aha” while I spoke* (G.G. A Naughty Boy, 71) ko‘rinishida o‘girilgan va undagi “po‘k” taqlidiy so‘zi tushirib qoldirilgan bo‘lsa, “ha-ha-ha” undovi “aha, aha” ko‘rinishida berilgan.

O‘zbek tilidan ingliz tiliga undov so‘zlarning tarjimada tushirib qolishi ham ko‘p kuzatiladi. Bunga “Shum bola” qissasidan olingan quyidagi parchalarni keltirish mumkin: **Obbo**, *harom o‘lgur, ho‘kiz yomonlab qoldi-yov* (G‘.G‘. Shum bola, 43) – *I thought it was the bull and I ran into the cowshed with the knife and the axe* (G.G. A Naughty Boy, 36). Yoki: **Iya**, *Adol opang hali erga chiqmagan-ku?* (G‘.G‘. Shum bola, 68) – *What?? Adolat is not married et!* (G.G. A Naughty Boy, 59); **Jahannam uzra bir ko‘prik erur, oh** (G‘.G‘. Shum bola, 98) – *There is a bridge above the hell* (G.G. A Naughty Boy, 84), **Ey** *attang, ha mayli, Xudo rahmat qilsin* (G‘.G‘. Shum bola, 107) – *What? I feel sorry. All right, may God keeps him*

(G.G. A Naughty Boy, 91); **Hoy**, musulmonlar, hoy xaloyiq! (G'.G'. Shum bola, 111) – *Muslim people! – He only said such* (G.G. A Naughty Boy, 95); **Ey**, Nasri Sayyor, minba'd xurosoniyalar sha'niga bunday beodoblik qilmagaysan (G'.G'. Shum bola, 126) – *Nasri sayor, don't do such rudeness to the Khuroson people's honor* (G.G. A Naughty Boy, 106) va h.k.

Ingliz tilidan o'zbek tiliga amalga oshirilgan tarjimalarda undov so'zlarning tushirib qoldirilishiga “Baxtiqaro Kerri” asaridan quyidagilarni misol qilish mumkin: **Oh**, *I need one, said Carrie* (Th.D. Sister Carrie, 43) – *Menga zontik kerak-da, axir!* – *Kerri unga shunday javob berdi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 61).

Bu gapda mutarjim asliyatdagi “oh” his-hayajon undovini tarjimada “axir” kuchaytiruv-ta'kid yuklamasiga almashtirib ifodalagan.

Oh, *I don't play, ventured Carrie* (Th.D. Sister Carrie, 75) – *Men chalishni bilmayman-ku, – Kerri yurak yutib gap qo'shdi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 104); **Oh**, *you wouldn't count it against an old man who can hardly see* (S.M. Mackintosh, 109) – *Siz janoblar men-bechoora cholni ma'zur tutinglar, endi kamina qulingizning ko'zlari tamoman ko'rmay qolgan-da!* (M.O. Makintosh, 154) gaplarida qo'llangan “oh” his-hayajon undovi asliyatda mavjudligi ko'rinib turgan bo'lsa ham, tarjimada tushirib qoldirilgan.

O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima gilisida undov so'zlarni boshqa so'z bilan berilishini “Shum bola” qissasi tarjimasida quyidagi holatlarda kuzatamiz: **Ie**, – *dedi Hoji bobo. – O'zi ham ko'zga yaqin, xushro'y besoqollardan edi* (G'.G'. Shum bola, 118) – *What! He was near to the eyes, a handsome beardless man* (G.G. A Naughty Boy, 101); **Mollaring shumi, boy bo'lib qolibsan, ey lo'livachcha** (G'.G'. Shumbola, 19) – *Look at your goods; you have become really 'rich', you little gypsy* (G.G. A Naughty Boy, 16); **Hay, hay, hay, men pul ushlagayman** (G'.G'. Shum bola, 55) – *No, no I will never touch the money* (G.G. A Naughty Boy, 48).

Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada undov so'zlarning tushirib qoldirilishi yoki boshqa so'zlar bilan almashtirilishini “Baxtiqaro Kerri” romanidagi quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin: **Ah**, *thought Carrie, with mournful misgivings, what is it I have lost* (Th.D. Sister Carrie, 71) – *Men hech nima yo'qotganim yo'q-ku?* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 98); **Oh**, *I don't play, ventured Carrie* (Th.D. Sister Carrie, 75) – *Men chalishni bilmayman-ku, – Kerri yurak yutib gap qo'shdi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 104); **Oh**, *an hour or so ago. What makes you ask that?* (Th.D. Sister Carrie, 171) – *Bir soatcha bo'ldi, – javob berdi Kerri. – Nimaga so'rayapsan?* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 227); **Oh**, *I don't know', said Carrie, angered by the man's attitude. Perhaps I didn't want her to come* (Th.D. Sister Carrie, 275) – *Nima desamikin, – Kerri Gerstvudning gapidan ancha-muncha jahli chiqib javob berdi. – Uning kelishini ehtimol xohlamagandirman* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 366); **Oh**, *it's as fine as it can be* (Th.D. Sister Carrie, 350) – *Bunday zo'r birorta mehmonxonani tasavvur qilish ham qiyin!* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 462).

O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimalarda modal so'zlarning tushirib qoldirilishi ham ko'p uchraydi. Bu fikrni “Shum bola” qissasi misolida ham dalillash mumkin. Masalan: **Darhaqiqat**, *sinchiklab qaracak boya poezd dahshatidan qo'rqqan qo'y*

bechora, bevaqt qochgan haromzoda bolasini chala tashlash uchun kuchanar edi (G'.G'. Shum bola, 74) – *We started to search, We saw the droppings of the sheep and followed them until we found two sheep near the stream alongside the railroad* (G.G. A Naughty Boy, 64) yoki *Xullasi, bu jangnoma shu xildagi vahima gaplar bilan to'la edi* (G'.G'. Shum bola, 126) – *This story was full with such worry sentences* (G.G. A Naughty Boy, 106).

Ingliz asarida modal soʻz mavjud boʻlmasa-da, uni oʻzbek tiliga oʻgʻirish jarayonida modal soʻzning tarjimon tomonidan matnga kiritilganiga guvoh boʻlish mumkin. Masalan, bunga quyidagi gaplarning tarjimasi misol boʻla oladi: *She saw that she would first need to get work and establish herself on a paying basis before she could think of having company of any sort* (Th.D. Sister Carrie, 9) – **Aytganday**, odam oʻzini oʻzi boqishi uchun oldin biror ish topishi, keyin esa tanishish-panishishlarni oʻylashi kerak (T.D. Baxtiqaro Kerri, 19); *Her new firm was a goodly institution* (Th.D. Sister Carrie, 20) – U ishlaydigan firma **chamasi** yirik korxonaga oʻxshaydi (T.D. Baxtiqaro Kerri, 34); *He wouldn't mind – he'd enjoy it', said Carrie* (Th.D. Sister Carrie, 23) – *Har holda u yo'q demasa kerak. Mazza qilib keladiku, axir!* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 37); *I wouldn't bother about it myself, though* (Th.D. Sister Carrie, 36) – **Darvoqe**, shaxsan men bunga boshimni qotirib oʻtirmasdim (T. D. Baxtiqaro Kerri, 55); *You haven't anything on hand for the night, have you? added Hurstwood* (Th.D. Sister Carrie, 37) – **Ehtimol**, bugun biror ishingiz bordir? – *so'raydi mayxona boshqaruvchisi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 55); *I don't know what I'm going to do about clothes, she said one evening when they were together* (Th.D. Sister Carrie, 42) – **Ochig'i**, qishda nima qilishimga hayronman, – dedi u bir kuni opa-singil ikkovlari xoli qolganlarida (T.D. Baxtiqaro Kerri, 62) va boshq.

Umuman, undov, modal, taqlidiy va tasviriy soʻzlarni tarjimada bera olish tarjimon mahoratiga bogʻliq boʻlib, bunda tarjimonning tildagi turli birliklardan foydalanish imkoniyati kengayadi. Tarjimon undov, taqlid va modal soʻzlarning oʻziga xos shakl va vazifalarini eʼtiborga olib, ularni tarjima qilishda aniq manbalarga, lugʻatlarga asoslanishi lozim.

Tarjima jarayonida asliyatdagi ayrim feʼllarni tarjimada taqlid soʻzlar vositasida hosil boʻlgan qoʻshma feʼllar bilan ifodalash holatlari juda koʻp uchraydi: *The Hansons expected her to go home* (Th.D. Sister Carrie, 51) – *Ko'pincha opasi bilan pochchasi esa qachon ketarkan deb ko'zlarini lo'q qilib o'tirishibdi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 73).

Koʻrinadiki, gapda qoʻllangan “loʻq” tasviriy soʻzi asliyatda mavjud emas. U tarjimada qoʻshilgan. Uning qoʻshilishi natijasida tasvirdagi obrazlilik kuchaytirilgan. “Loʻq” soʻzi koʻpincha koʻz qarashiga nisbatan ishlatilib, bezrayib turish maʼnosini ifodalab keladi.

Transliteratsiya undov, taqlid va modal soʻzlarni tarjimada berishning keng qoʻllanadigan usullaridan biridir. Lekin bunda tovushlarning toʻliq yoki oʻzgargan holda saqlanishi kuzatiladi. Masalan: *Um, he replied, for want of something better, and walked on* (Th.D. Sister Carrie, 29) – **Him!** – *usta yana nima deyishini bilmay ketaverdi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 45).

Bu misolda ingliz tilidagi “um” undovi oʻzbek tilida “him” undovi bilan

berilgan. Navbatdagi gapda esa ingliz tilidagi “uh” undovi o‘zbek tilidagi “uf” undovi bilan ifodalangan. Holbuki, o‘zbek tilida ham alohida “uh” undovi mavjud bo‘lsa-da, tarjimon undan foydalanmagan. *Uh! She said, using the sound as an exclamation of disgust, “I’ll not argue with you” and therewith arose to leave the table* (Th.D. Sister Carrie, 150) – *Uf! – missis Gerstvod ko‘ksidan otilib chiqqan bu xo‘rsiniqqa o‘zining butun g‘azabini joylashga harakat qilganday edi. Sen bilan **adi-badi** aytishib o‘tirishga sira ham toqatim yo‘q* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 201).

Aslida, toliqish va zerikishni anglatuvchi “uf” va “uh” undovlari mazkur gapda jirkanish ma‘nosini ifodalashga xizmat qilgan.

Afsuski, undov, taqlid va modal so‘zlar tarjima lug‘atlarda berilishiga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan. N.Aliboyeva buni taqlidlar misolida ko‘rib chiqar ekan, ularning lug‘at tuzuvchilar tomonidan e‘tibordan chetda qoldirilganligiga bir necha misollar keltiradi.

Masalan:

Blast [bla:st] 1.n. shamolning birdan kuchayishi; 2.v. portlamoq” [Butayev & Irisqulov, 2009; 60].

Yoki:

G‘uvillamoq f. to howl wail hum [Butayev & Irisqulov, 2009; 790].

Ko‘rinadiki, keltirilgan bu so‘zlar sof taqlid so‘zlar emas, balki sifat, ravish va fe‘llardir. Demak, tarjima lug‘atlarni bu jihatdan takomillashtirish, ularda undov, taqlid va modal so‘zlarining izohini berish lozim.

Tovush va tovushlar birikmasidan tarkib topuvchi ayrim undov va taqlid so‘zlar ingliz va o‘zbek tillarida aynan emas, ularning taqlidiy fonosemantikasini o‘zida ifodalagan izohlar bilan berilishi ko‘p kuzatiladi. Jumladan:

Carrie made no answer (Th.D. Sister Carrie, 159) – *Kerri hali ham **churq etmasdi*** (T.D. Baxtiqaro Kerri, 212).

Yoki:

She did not propose to be quarreled with (Th.D. Sister Carrie, 162) – *Qiz onasi bilan **adi-badi** aytishishni istamagandi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 215).

Birinchi gapda “no answer”/“javob bermadi” tushunchasi “churq etmoq” degan taqlid so‘z+fe‘l qo‘shilmasidan iborat qo‘shma fe‘l orqali berilgan. Uning o‘rnida indamadi, gapirmadi fe‘llarini, “og‘iz ochmadi” iborasini ham qo‘llash mumkin edi. Ikkinchi gapda esa “janjallashish” tushunchasi o‘rnida “adi-badi aytishish” fe‘li keltirilgan.

Gapirmaslik yoki indamaslik holati “miq etmoq” degan taqlid so‘z+fe‘l qo‘shilmasidan iborat qo‘shma fe‘l bilan ham beriladi: *She made no answer* (Th.D. Sister Carrie, 168) – *Missis Gerstvod uning gapiga **miq etmadi*** (T.D. Baxtiqaro Kerri, 223). Ushbu gapda “miq etmaslik” fe‘li “javob bermadi” fe‘liga mos tushgan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da undov, taqlid va modal so‘zlar berilishi statistikasini o‘rganilganda, unda jami 459 ta taqlid so‘zlar mavjudligi ayonlashdi. Shulardan 223 tasi yakka taqlid so‘zlar, 38 tasi juft taqlid so‘zlar, 63 tasi esa turli xil takror taqlid so‘zlar, 135 tasi bir xil takror taqlid so‘zlar ekan [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2006].

O‘zbekcha-inglizcha lug‘atlarda undov, taqlid va modal so‘zlar ko‘proq sof holatda berilmasa-da, ular asosida yasalgan mustaqil so‘zlar tarjimalari keltiriladi. Bunday holatlarda tarjimon keltirilgan leksemalardan qaysi biri aynan undov, taqlid va modal so‘z ekanligini aniqlash uchun uning sof shaklini bilishga intiladi va buning uchun qo‘shimcha manbalarga murojaat qilishga majbur bo‘ladi. Bu esa tarjimada filologik yondashuvni keltirib chiqaradi.

Hozircha lug‘atlarda undov, taqlid va modal so‘zlarning omonimik xususiyati, ularning sof ko‘rinishi hamda ko‘chma ma‘nolari to‘liq berilmagan. Ammo tilshunoslikning korpus lingvistikasi sohasida parallel korpuslar milliy bir tilli korpuslar asosida tuzilayotgan hozirgi bir sharoitda undov, taqlid va modal so‘zlarning ham chog‘ishtirma o‘quv elektron lug‘atlarini tuzish mumkin.

O‘zbek va ingliz tillaridagi undov, tasviriy va taqlidiy ifodalar, modal so‘zlarning o‘zaro tarjimasi alohida e‘tiborni tortadigan muhim masalalardan biridir. Ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda turli chalkashlik va murakkabliklar tug‘ilishi tabiiy. Bunda bir tildagi undov, tasviriy va taqlidiy ifodalar, modal so‘zlar boshqa tilda umuman o‘zgacha aytilishi va anglashilishini, ifodalanishini inobatga olish zarur. Masalan:

Asliyatda:

– *Were there many there?*

– *The house was full* (Th.D. Sister Carrie, 165).

Tarjimada:

– *Odam ko‘p bo‘ldimi?*

– **Liq-liq!** – *xitob qildi missis Gerstvudning suhbatdoshi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 220).

Tarjimada qo‘llangan “Liq-liq!” tasviriy taqlid so‘z asliyatda yo‘q. U tarjimada keltirilgan. U asliyatdagi “to‘la” degan tushunchani anglatuvchi “full” ravishi o‘rnida qo‘llangan. Bu so‘zlar garchi boshqa-boshqa turkumga mansub bo‘lsa-da, mazmunan “ko‘p”, “to‘la” degan ma‘nolarni anglatib keladi.

Har bir tildagi tovush orqali ifodalanuvchi undov yoki taqlid so‘zlarning fonetik o‘ziga xosliklari boshqa tildagi aynan o‘sha tovushga taqlidni ifodalovchi birlikni topishda qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun tarjimalarda ularning bevosita til egalarining artikulyatsion imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ifodalanishini kuzatish mumkin: **Hmph!** *He murmured, with a movement of his head to one side* (Th.D. Sister Carrie, 168) – **Him!** – *deb qo‘ydi Gerstvud boshini bir tomonga qiyshaytirib* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 223).

Yoki: **Hm!** *He said, clearing his throat and locking the door* (Th.D. Sister Carrie, 387) – **Kxe,** – *Gerstvud tomoq qirdi-da, eshikni qulfladi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 508).

Bu gaplarning asliyatida qo‘llanilgan undovlar “**Hmph!**” // “**Him!**”; “**Hm!**” // “**Kxe**” ko‘rinishdagi talaffuz asosida berilgan.

Demak, har bir til egasi aynan bir tovushning o‘zini boshqacha qabul qilishi va butunlay ayri-ayri bir jihatiga urg‘u bergan holda ifodalashi mumkin. Albatta, bu tarjimonning mahorati, asliyat matnning nolisoniy omillarini to‘g‘ri anglashi, har

bir til birligining poetik xususiyati [Chironov, 2004; 8] va imkoniyatlarini teran his etishi bilan ham bog‘liq. Bularga tarjima jarayonida katta ahamiyat qaratilsa, tarjimaning ko‘ngildagiday chiqishiga erishish mumkin bo‘ladi.

Ba‘zan tarjimada undov yoki modal so‘zlarning biri o‘rnida ikkinchisi berilganiga ham guvoh bo‘lamiz, masalan: *Yes, in a way’, said the other, sore to think the game had been lost* (Th.D. Sister Carrie, 194) – **Him**, *yomon emas!* – *ishni buzib qo‘yganidan xafa ko‘ringan direktor uning gapiga qo‘shildi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 258).

Ko‘rinyaptiki, gapning boshida keltirilgan tasdiqni bildiruvchi inglizcha “Yes” modal so‘zi o‘rnida o‘zbekcha tarjimada xuddi shunday tasdiqlash, ma‘qullash ohangida aytiluvchi “him” undovi keltirilgan.

G.Uellsning “Doktor Moro oroli” asarini [Uells, 1993; 125] ingliz tilidan T.Jo‘rayev va M.Mamajonova bevosita tarjima qilgan. Shu asarni kuzatganimizda, unda o‘zbek tilidagi chama va taxminni bildiruvchi “chamasi” modal so‘zining quyidagi so‘zlarni almashtirishda qo‘llanganiga guvoh bo‘ldik:

Asliyatda	Tarjimada
He must have seen the question in my face, for my voice was inaccessible to me (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 6)	Chamasi, u bu savolni yuzimdan payqadi, chunki ovozim o‘zimga ham eshitilmayotgan edi (G.U. Doktor Moro oroli, 1993; 9)
Once more I thought I caught the glint of his eyes, and that was all (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 39)	Chamasi, ko‘zlari yana yiltillagandek tuyuldi (G.U. Doktor Moro oroli, 36)
He seemed puzzled at something (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 50)	Chamasi, u nimadandir qattiq hayratda edi (G.U. Doktor Moro oroli, 45)
I think indeed that I anticipate a little in speaking of it now (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 92)	Chamasi, bu haqda gap ochib, mavzudan ilgari ketayotganga o‘xshayman (G.U. Doktor Moro oroli, 82)

Ko‘rinadiki, o‘zbek mutarjimlari ingliz tilidagi “kerak” ma‘nosini ifodalovchi “must” so‘zini, “men o‘yladim” tushunchasini anglatuvchi “I thought”, “tuyilardi” fe‘lini bildiruvchi “seemed” fe‘lini, “o‘ylaymanki” ma‘nosidagi “I think” modal birikmasini birgina “chamasi” modal so‘zi bilan berganlar va imkon qadar adekvatlikka erishganlar. Ular yana “tuyilmoq” ma‘nosini anglatuvchi “seemed” fe‘lining ma‘nosini o‘zbek tilidagi chama-taxminni bildiruvchi “aftidan” modal so‘zi bilan ham ifoda etganlar: **Aftidan**, *gaplarim uni qiziqtirib qo‘ydi* (G.U. Doktor Moro oroli, 1993; 10) – *He seemed interested in this* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 7).

Fikrning yakunini, xulosasini ifodalovchi modal munosabatlar ushbu asarning o‘zbek tiliga tarjimasida yo *nihoyat*, yo *xullas* kabi modal so‘zlar bilan ifodalangan:

In the dawn the sail was nearer, and I saw it was the dirty lug-sail of a small boat (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 123).

Bu gapda uzoq kutilgan narsa-hodisaning yakuniga e‘tibor qaratilmoqda. Ammo unda modal so‘zdan foydalanilmagan. Shunday bo‘lsa-da, mutarjim uni

o'g'irishda matn mazmunidan kelib chiqib, "nihoyat" modal so'zini qo'llagan: *Nihoyat, kema erta saharga yaqin keldi, u hech qanaqa kema emas, iflos bir elkanli qayiq ekan* (G.U. Doktor Moro oroli, 109). Natijada bu so'z "kirish so'z" vazifasida qo'llanib, matnning sintaktik qurilmasida o'zgarish yasagan.

Ba'zan "nihoyat" modal so'zining "**presently**" – "hozirda" payt ravishi qo'llangan gaplarda ko'zlangan ishning yakunlangani, tugaganini bildirish uchun qo'llanishi kuzatiladi: *Presently that work was finished, and then came a struggle* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 20) – *Nihoyat, yuklar tushirib bo'linib, navbat menga etdi* (G.U. Doktor Moro oroli, 21).

Shuningdek, "nihoyat" modal so'zi "keyin", "shunda" ma'nosini anglatuvchi "**then**" payt ravishi qo'llangan gaplarda bir ishning yakunlanib, boshqasi boshlanganini bildirish uchun ham tarjimada aks ettirilgani ko'rinadi: *Then I heard the sound of the sea* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 40) – *Nihoyat, dengizning shovullashi eshitildi* (G.U. Doktor Moro oroli, 37).

Bunda tarjimon "I heard" / "Men eshitdim" degan ifodani birinchi shaxs (muallif tili)da emas, majhul nisbatda (eshitildi) berganligi uchun "keyin" so'zini qo'llay olmagan va uning o'rnida "nihoyat" modal so'zini qo'llashga majbur bo'lgan.

Quyidagi gapda "nihoyat" modal so'zi "shunda" payt ravishini almashtirgan: *Then Montgomery hiccoughed, "Who – said he was dead?"* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 99) – *Nihoyat, Montgomeri hiqichiq aralash ovozda: – Kim, uni o'ldi deyayotgan? – deb so'radi* (G.U. Doktor Moro oroli, 88).

Ingliz tilida "At last" so'zi o'zbek tilida "nihoyat" modal so'ziga muqobil so'zdir. Ularni tarjimada bir-birining o'rnida qo'llash adekvatlikka olib keladi: *At last with an effort I put out the light and got into the hammock* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 75) – *Nihoyat, o'zimni majburlab, chiroqni o'chirdim va to'rt belanchakka chiqib yotdim* (G.U. Doktor Moro oroli, 67).

Faqatgina o'zbek tilida modal so'zlar gapning qaysi o'rnida (boshi, o'rtasi yo oxirida) kelishidan qat'i nazar vergul bilan ajratiladi. Shu orqali ularning alohida so'z ekani, boshqa gap bo'laklari bilan bog'lana olmasligi, shuning uchun ajralib turishini bildiradi. Biroq ingliz tilida bunday holat deyarli kam uchraydi: *At last the fury of the hunt slackened* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 89) – *Nihoyat, quvdi-quvdi hovuri biroz bosildi* (G.U. Doktor Moro oroli, 80).

Yoki yana: *At last we drew near the westward extremity of the island* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 101) – *Nihoyat, biz orolning g'arbiy burchiga ham etib keldik* (G.U. Doktor Moro oroli, 90).

"**Xullas**" modal so'zi ham fikrning tugaganiga ishora qiladi. Shuning uchun u inglizcha matnlarda qo'llangan "shunday qilib" ma'nosini anglatuvchi "So" so'zi o'rnida keltiriladi: *So I waited passively upon fate* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 20) – *Xullas, peshonada borini ko'rishga rozi bo'lishdan boshqa ilojim yo'q edi* (G.U. Doktor Moro oroli, 21).

Quyidagi gapda asar qahramonining xulosasi aks etgani uchun tarjimon unda "xullas" modal so'zini qo'llash orqali so'zlovchining o'z fikriga munosabatini aks ettirishga erishgan: *There was nothing for it but courage* (W.H. The Island of Dr.

Moreau, 1896; 106) – *Xullas*, o‘z matonatimga tayanmoqdan boshqa ilojim qolmagan edi (G.U. Doktor Moro oroli, 97).

Ammo quyidagi jumlada “xullas” modal so‘zining qo‘llanishiga u qadar ehtiyoj kuzatilmasa-da, tarjimon undan ortiqcha foydalangan: *Slowly we pushed in among the fretted network of branches and leaves* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 90) – *Xullas*, uzun-qisqa bo‘lib, shoshilmay bir-biriga chirmashib ketgan shox-shabbalar orasidan o‘tib borardik (G.U. Doktor Moro oroli, 80).

Ko‘pincha, o‘tmishni eslash, xotirlash, yodga solish jarayonida “darvoqe” modal so‘zi ishlatiladi:

Well? said he in the doorway. You were just beginning to tell me (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 7) – *Darvoqe*, – dedi u ostona hatlarkan, – boshingizdan kechirgan voqealarni gapirib bermoqchi edingiz (G.U. Doktor Moro oroli, 1993; 10).

Ingliz tilida “indeed” so‘zi ham modal so‘zlardan biridir. U o‘zbek tilidagi “haqiqatan ham”, “darhaqiqat” kabi fikrning to‘g‘ri, asosli, chinligini bildiruvchi modal so‘zlarga muqobil bo‘la oladi. Shunday bo‘lsa-da, quyidagi parchada uning “darvoqe” so‘zi o‘rnida keltirilgani kuzatiladi: *A similar operation is the transfusion of blood, – with which subject, indeed, I began* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 67) – *Qon quyish ham xuddi shuning o‘zginasi, darvoqe, men faoliyatimni shuni o‘rganishdan boshlaganman* (G.U. Doktor Moro oroli, 60).

Ba‘zan uning fikrning manbasini ko‘rsatuvchi modal so‘zlar o‘rnida keltirilganiga ham guvoh bo‘lish mumkin: *I suppose that’s what your humanity would suggest?* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 102) – *Darvoqe*, keyin sizning insonparvarligingiz ham bunga yo‘l qo‘ymasa kerak (G.U. Doktor Moro oroli, 91).

Aslida, “I suppose” – “menimcha” modal so‘zi bilan berilishi lozim edi.

O‘zbek tilidagi “alhol” modal so‘zi ayni paytdagi holatga munosabatni ifoda etishi tufayli ko‘pincha payt hollari o‘rnida ishlatiladi. Masalan: *Meanwhile the sailors progressed rapidly with the task of unshipping the packages and caged animals* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 20) – *Alhol*, dengizchilar chaqqonlik bilan yuklarni, hayvonlar qamalgan qafaslarni tushirishardi (G.U. Doktor Moro oroli, 20”).

Yoki: – *Presently I heard an animal wailing again, and talking it to be the puma, I turned about and walked in a direction diametrically opposite to the sound* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 36) – *Alhol*, qulog‘imga yana hayvonning o‘kirigi eshitildi, men puma bo‘lsa kerak, deb o‘ylab, ters burildim va qarama-qarshi tomonga qarab keta boshladim (G.U. Doktor Moro oroli, 33).

Yana: *In another second I was running, one of a tumultuous shouting crowd, in pursuit of the escaping Leopard-man* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 88) – *Alhol*, men ham ayyuhannos solganicha chopib ketayotgan to‘da bilan birga goplonsifat odam ortidan quvdim (G.U. Doktor Moro oroli, 78).

Keltirilgan gaplarda “*meanwhile*”//“*ayni paytda*”, “*presently*”//“*shu paytda*”, “*in another second*”//“*yana bir soniyada*” degan payt ravishlarini ifodalash uchun “alhol” modal so‘zidan foydalanilgan.

O‘zbek tilida “*aytishlaricha*” modal so‘zi fikrning boshqalarga tegishli ekanini

bildiradi. Quyidagi u gap mazmuniga qarab keltirilgan: *She was said to be a passionate votary of the Law* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 78) – *Aytishlaricha, u nihoyatda taqvodor va o'taketgan Qonun tarafdori emish* (G.U. Doktor Moro oroli, 70).

“Albatta” modal so‘zi fikrning tasdig‘ini bildirishga xizmat qiladi: *Yet every now and then the beast would flash out upon me beyond doubt or denial* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 80) – *Albatta, hayvoniy xislatlar vaqti-vaqti bilan yarq etib ko‘zga tashlanib ham qolardi* (G.U. Doktor Moro oroli, 71).

Quyidagi gap tarjimasida “alalxusus” modal so‘zi ingliz tilida agar bog‘lovchisi bo‘lib keladigan “If” so‘ziga moslab olingan: *If some brute has by any accident tasted blood* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 84) – *Alalxusus, ulardan birortasi qon ta‘mini totgan bo‘lsa* (G.U. Doktor Moro oroli, 75).

Ushbu gap mazmunan qat‘iy fikr ifodasiga qaratilgani uchun mutarjim uning tarjimasida “tayinki” modal so‘zidan foydalangan: *He had been strangely under the influence of Moreau’s personality* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 102) – *Tayinki, u Moroning ta‘siriga juda berilgan shaxs edi* (G.U. Doktor Moro oroli, 90).

Ingliz tilida “do you think the” birikmasi o‘zbek tilidagi fikrning manbasini aniqlashga qaratilgan “sizningcha” modal so‘ziga mos keladi. Ammo quyidagi gapning tarjimasida mutarjim chama-taxminni bildiruvchi “mabodo” modal so‘zini qo‘llangan: *Do you think the whole damned ship belongs to you?* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 12) – *Mabodo, butun kemani ham o‘zingizniki deb o‘ylayapsizmi?* (G.U. Doktor Moro oroli, 1993; 15).

“As it is” “xuddi shunday” deganidir, ammo yuqoridagi kitob tarjimasida bu birikma o‘rnida “afsus” degan achinishni, afsuslanishni anglatuvchi “afsus” modal so‘zi qo‘llangan: *As it is, you have wasted the best part of my day with your confounded imagination* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 65) – *Afsus, sizning bemaza vasvasangiz tufayli bugun juda ko‘p qimmatli vaqtimni yo‘qotdim* (G.U. Doktor Moro oroli, 58).

Modal so‘zlar gap boshida, o‘rtasida, oxirida kelishi ma‘lum, ammo tarjimada ba‘zan ularning o‘rni almashadi. Ingliz tilida modal so‘zlar har doim ham vergul orqali ko‘rsatilavermaydi.

Emotsionallik nutqiy kategoriyasi borliqdagi narsa va hodisalarni ma‘qullash yoki ma‘qullamaslik, turli insoniy tuyg‘ularni ifodalash uchun xizmat qiladi va bunda u har doim baholash tushunchasi qurshovida voqelanadi. Shunday holatlarni ifodalovchi undov so‘zlarning asliyat va tarjimada aynan saqlanishi kuzatiladi: *Oh, what a beast I am* (S.M. Theatre, 71) – *Oh, men g‘irt cho‘chqaning o‘ziman-a!* (G.M. O‘tkinchi ehtiros, 52).

Bundan emotsional ma‘no esa, o‘z navbatida, leksik ifodalanishdan tashqari, his-tuyg‘u va sezgilarni ham aks ettirishi yorqin anglashiladi [Aznaurova, 1973; 405]. Emotsional fikrlash psixologlar tomonidan azaldan obyektiv mavjud fenomen sifatida tan olingan [Tixomorov, 1984; 272]. Jumladan, K.E. Izard emotsionallikni psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilgan ekan, uni ob‘yektiv haqiqatni tushunish, idrok etish va baholashning shakllaridan biri sifatida qayd etadi [Izard, 2008; 464]. Bunda emotiv – so‘z, so‘z esa, o‘z navbatida, ongning elementi ekanligini unutib bo‘lmaydi. J.Layonz

tushunchalar va emotsiyalarni fikrlash faoliyatining qarama-qarshi qutblariga ajratgan holda bir-biriga qat'iy zid qo'yadi [Layonz, 1978; 540]. Emotsionallik inson hissiyoti bilan chambarchas bog'langan va shu his-kechinmalarni turli lisoniy vositalar yordamida voqelantiradi. Buni quyidagi misollar asosida ham dalillash mumkin:

Oh!" he said (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 50) – **O'-o'!** – *dedi u hayratlanib* (G.U. Doktor Moro oroli, 45).

Yoki: *But where are the huts?* – "*Oh!*" (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 51) – *Qayerda yerto 'langiz?* – **O'-o'!** (G.U. Doktor Moro oroli, 46).

Asliyat tilida his-hayajonni ifodalash uchun yozuvchi bir bo'g'indan iborat **oh** undovidan foydalangan bo'lsa, tarjima tilida birgina tovushdan iborat **o'** undovi takrori (**o'-o'**) qo'llanilgan. Lekin har ikkala matnda ham hayratlanish mazmuni va ohangi saqlangan. Ularning har ikkovi kuchli va konnotativ emotsiyani ifodalashga xizmat qilgan.

S.Moemning "Oy va sariq chaqa" romanida Striklend xonimning Mak Endryu xonimga murojaati ingliz va o'zbek tillarida quyidagicha ifoda topgan:

Asliyat – inglizchada: *Oh, my dear, remember what we've just heard* (S.M. The Moon and Sixpence, 80).

Tarjima til – o'zbekchada: *Eh, jonginim, u to'g'risida senga aytib berishgan gaplarni eslab ko'r* (R.I. Oy va sariq chaqa, 62).

Asl nusxadagi his-hayajon *Oh, my dear, remember what we've just heard* jumlasini o'zbek tiliga tarjima qilganda *Eh, jonginam, biz hozirgina eshitgan gaplarni bir eslab ko'r* degan mazmun chiqadi. Chunki asl nusxada *u to'g'risida senga aytib berishgan* jumlasini yo'q.

Asarda yana *Oh, if you knew the frightful anguish in my heart; Oh, if you only knew what I've suffered!; If I'd only waited, perhaps it would have gone all right. I shouldn't have been so impatient. Oh, poor child, what have I driven her to?* (S.M. The Moon and Sixpence, 152) – *Eh, menga qanday dahshatli qiynoqlar azob berishini bilsayding! Eh, mening naqadar azob chekayotganimni sen bilsayding! Agar men hovliqib bu gaplarni aytmaganimda, hammasi o'tib ketarmidi. Bunchalik besabr bo'lish yaxshimas. Bechora xotinimni shunchalikka olib bordim-a!* (R.I. Oy va sariq chaqa, 116)" kabi gaplar keltirilganki, bizningcha, ularni berishda muallif to'g'ri yo'l tutgan. Negaki, **oh** undovi ko'pincha insonga xos chuqur ichki dardni, ruhiy qiynoqni, ozorlanishni, cheksiz afsusni ifodalaydi. Bunga uning tarkibidagi **o** tovushining til orqa, keng unli ekani, ya'ni bu tovush **e** ga nisbatan ichkariroqda, chuqurroqda paydo bo'lishi bilan ham ta'sir ko'rsatishi tabiiy. **eh** undovi esa bu jihatdan ko'proq achinish va afsuslanishni bildiradi. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, asliyatda tarjimaga nisbatan emotsionallik kuchliroq ifoda etilgan.

Dirk rafiqasi Blanshning janob Striklend bilan janjallashib qolgandan so'ng o'zini-o'zi o'ldirish niyatida kislota ichgani haqidagi xabarni eshitib, uni tezda kasalxonaga olib boradi. Bunda uning iztiroblari quyidagi his-hayajon undovi orqali ochib berilgan: *Oh, if you knew how she's suffering!* (S.M. The Moon and Sixpence, 172) – *Eh, sen uning qanchalar qiynalganini bilsang edi!* (R.I. Oy va sariq chaqa, 131).

“Oy va sariq chaqa” romanida Stryov Striklendni tirik ko‘rgandagi cheksiz quvonch va hayajoni *Oh, my God, I thought you were dead* (S.M. The Moon and Sixpence, 125) tarjimada: *Ey, xudoyim! Men sizni o‘lib qoldi, deb o‘ylabman* (R.I. Oy va sariq chaqa, 95) deb ifodalangan.

Shu asarda ayol o‘z fikrida qat‘iy turib, keskin noroziligini eriga yolvorib ta‘kidlar ekan, uning nutqida “oh”/“oh” undovi va inkor hamda norozilikni bildiruvchi “yo‘q” // “no” modal so‘zi qo‘llangan: *Oh, Dirk, I’ve never since we met asked you to do anything for me. No, no. I know I’m right. Something terrible will happen to us. You know there’s nothing in the world that I wouldn’t do for you.* Tarjimasi: *O, Dirk, butun hayotim mobaynida hech qachon sendan hech narsani iltimos qilmaganman. Yo‘q, yo‘q! Nima deyayotganimni bilib turibman. Qandaydir dahshatli narsa ro‘y beradi. Sen uchun hamma narsaga tayyorligimni bilasan-ku, axir.*

Ko‘rinadiki, bunda asliyatda qo‘llanilgan “Oh” undovi tarjimada “O” undovi bilan berilgan. Holbuki, ular tovushlar tarkibiga ko‘ra farq qiladi.

Ingliz tilida: **Oh**, *Charles, how can you! You are sweet* (S.M. Theatre, 105). O‘zbek tilida: **O**, *Charlz, bu haddan ziyod qimmatbaho buyum. Siz biram iltifotlisizki!* (G.M. O‘tkinchi ehtiros, 67).

“O” undovi ham ingliz va o‘zbek tillarida shaklan va mazmunan muqobillikda ham qo‘llanadi: *Goes back to the House of Pain, O Master!* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 87) – *Uqubat uyiga qaytajak, o, qudratli og‘a!* (G.U. Doktor Moro oroli, 78).

A.D. Shveyser tomonidan taklif qilingan funksional-analog tarjimada [Xakimova, 2014; 179-181] matndagi so‘z muqobili tarjima qilinayotgan tilda ham topilib, o‘rniga shu muqobil ishlatiladi.

Ingliz tilidagi “ah” undovi o‘zbek tiliga “he” undovi bilan o‘g‘irilgan holatlar ham uchraydi: *Ah, you bloody coward! he elled* (Th.D. Sister Carrie, 326) – *He, razil, qo‘rqoq!* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 430).

S.Moemning “Oy va sariq chaqa” romanida Striklend bilan qayta ko‘rishishga muvaffaq bo‘lgan Dirk hayajonga va ehtirosiga berilib: *Thank God. I’ve found you, ya‘ni Xudoga shukur, seni topdim!* – deya xitob qiladiki, bunda modal so‘zning ekspressivlikni oshirishdaagi o‘rni va roli bo‘rtib turibdi.

Yuqorida nomi tilga olingan “Oy va sariq chaqa” romanida xotining vafotidan so‘ng ruhan o‘lgan Dirk tilidan: *Ah, I wish I could make you see the enchantment of that spot, a corner hidden away from all the world, with the blue sky overhead and the rich, luxuriant trees. Ah, I wish I were fifteen again* (S.M. The Moon and Sixpence, 270) – *Eh, men olamning ko‘zidan yashirin bu ovloq joylarning butun go‘zalligini, beg‘ubor osmoni-yu, ayqirib o‘sib yotgan daraxtlarini chiza olganidaydi! Eh, hozir mening yoshim o‘n beshda bo‘lgandaydi!* (R.I. Oy va sariq chaqa, 206) kabi iztiroblari bayon etilgan.

O‘zbek tilidagi “Hoy!” undovi goh “Hullo!”, goh “Hey!” undovlari o‘rnida murojaat qilish, chaqirish ma‘nosida ishlatilgani ko‘rinadi:

“Hullo!” said I (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 51) – *“Hoy!” – deb chaqirdim men*” (G.U. Doktor Moro oroli, 46).

Yoki:

“**Hey!**” *came out of the lump of mystery opposite* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 54) – “**Hoy**”, – *dedi to ‘g‘rimda o ‘tirgan sirli sharpa*” (G.U. Doktor Moro oroli, 46).

Quyidagi gapda “jim” ishorasini ifodalash uchun ingliz tilida “**Hush!**” undovidan foydalanilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida buning uchun “**Tss!**” undovi qo‘llanilgan: “**Hush!**” *said Moreau, and held up his hand* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 62) – “**Tss!**” – *dedi Moro, qo‘lini ko‘tarib, jim degandek ishora qilarkan* (G.U. Doktor Moro oroli, 55).

Quyidagi gapda ajablanish ma‘nosi borligi uchun tarjimon uni o‘zbek tiliga o‘g‘irishda shunday ma‘noni bildira oladigan “**Ie**” undovini qo‘shgan: “*Was he not made?*” *said the Ape-man* (W.H. The Island of Dr. Moreau, 1896; 82) – **Ie**, *hali u yasalgan emasmi?* – *dedi maymunsifat odam* (G.U. Doktor Moro oroli, 73).

Fikrimizcha, tarjima jarayonida ingliz tilida yaratilgan asar asliyatida bo‘lmasada, tarjimada undov so‘zlarni qo‘shish yoxud, aksincha, asliyatda mavjud undov so‘z tarjima matnidan tushirib qoldirilishi holati ularga xos hissiy va modal munosabat ifoda etish xususiyati bilan bog‘liqdir. Aytaylik, *You ought to have been up before dawn like me. Lazy beggar* (S.M. Mackintosh, 107) gapida **a** undovi mavjud bo‘lmasada, shu gapning tarjimasida undan foydalanilgan: *Menga o ‘xshab tong otmasdan, erta saharda o ‘rningizdan tursangiz bo ‘lmaydimi, a, ishyoqmas tanbal!* (M.O. Makintosh, 146). Shu asosda ingliz tilidagi darak gap o‘zbek tiliga his-hayajon gap ko‘rinishida o‘g‘irilgan.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, tarjima jarayonida asliyatda bo‘lmagan undovlarni qo‘shib tarjima qilish ushbu undov tovushi misolida ham kuzatiladi. Jumladan: *She had been a pretty little thing* (S.M. The Taipan, 570) gapining o‘zbekcha **O**, *naqadar ajoyib, ofatijon qiz edi u* (M.O. Taypan, 75) tarjimasini kuzatar ekanmiz, unga mutarjim tomonidan qo‘shilgan “o” undovi e‘tiborni tortadi. Bu bilan tarjimon ushbu gapning ta‘sirchanligini kuchaytirishga tirishgani anglashiladi. Ba‘zan bunday holatlarda tarjimonlarning tovush undovlarini takror keltirish orqali intensivlikka erishgani kuzatiladi: *You’re quite a stranger, Mr Mackintosh* (S.M. Mackintosh, 120). Ko‘rinadiki, asl matnda **o** undovi yo‘q, lekin uning tarjimasida mavjud. Qolaversa, takror ham qo‘llangan: *O-o, janob Makintosh, biz taraflarda umuman ko‘rinmay ketdingiz* (M.O. Makintosh, 196). Shu orqali tarjima matni ta‘sirchanligining orttirilishiga erishilgan.

E tovushidan iborat his-hayajon undovi ingliz va o‘zbek tillarida e‘tiroz qatori ma‘quullash, hayrat, zavqlanish, nopisandlik, inkor qilish, ikkilanish singari ma‘no ottenkalarini ifodalab keladiki, shuning uchun garchi asliyat matnida bo‘lmasada, tarjimada ularga o‘rin berish xato sanalmaydi. Masalan, *That’s what I’m always telling her. I can’t get her to enjoy herself* (S.M. Louise, 259) – **E**, *buni unga doim aytaman. Do ‘stlaring bilan o ‘ynab kulib yur deb, hech ko ‘ndirolmadim* (A.O. Luiza, 96); *Well, you know what she is. She sits there and smiles to herself* (S.M. Home, 106) – **E**, *uning qanaqaligini bilasiz-ku. O ‘rnida o ‘tirganicha o ‘zicha jilmayadi* (A.O. Xonadon, 120).

Misol qilib olingan ingliz tilidagi uchala gap tarkibida ham **e** undovi mavjud

emas, lekin ularning o‘zbekcha tarjimasida bu undov voqelangan. Bunga, albatta, keltirilgan gaplarning e his-hayajon undovi mazmuniga mosligi, ya’ni birinchi gapning e’tiroz va inkor, ikkinchi va uchinchi gaplarning esa norozilik ma’nolarini anglatayotgani asos bo‘lgan.

Undov so‘zlar qo‘shilishi natijasida gapning tarkibi kengayishi ham kuzatiladi: *Look, there’s Wilson* (S.M. The Lotus Eater, 798) – *Ie, ana, qaragin, Uilson ham shu erda ekan!* – *deb qoldi* (M.O. Nilufar gulining toti, 108). Yana agar berilgan so‘zning hech qanday muqobili bo‘lmasa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima o‘rniga izohlardan foydalanish mumkin.

XULOSA

Demak, tarjimon mahorati erkin va aniq tarjima o‘rtasida muvozanat saqlay olish, me’yorni his qilishida ko‘rinadi. Aslida, asarni yozish ham, uni tarjima qilish ham ijodning muayyan turi. Farq shundaki, asliy asar yaratish erkin ijod bo‘lsa, tarjima – tobe ijod. G‘oya, mazmun, uslub, til tanlash tarjimon ixtiyorida emas, u aslyat muallifi aytmoqchi bo‘lgan fikrni qayta badiiy ifoda etish va asar ijodkori – muallifning o‘quvchiga o‘tkazmoqchi bo‘lgan ta’sirini mumkin qadar o‘zgartirmasdan kitobxonga yetkazmog‘i lozim. Mana shu tobelik asarni qayta yaratishda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliboyeva, N.M. (2021). O‘zbek va ingliz tillarida taqlid so‘zlarning qiyosiy tadqiqi. *Filol. fan. fals. dok. dis.* Andijon.
2. Aznaurova, E.S. (1973). *Ocherki po stilistike slova*. Tashkent: Izdatel'stvo "Nauka".
3. Butayev, Sh., & Irisqulov, A. (2009). *Inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha lug‘at*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
4. Draiser, T. (2020). *Sister Carrie*. UK: Global Grey.
5. Drayzer, T. (2007). *Baxtiqaro Kerri*. Tashkent: 'East' Publishing House.
6. Fatyukhin, V.V. (2000). Osobennosti perevoda zvukopodrazhaniy i mezhdometnykh glagolov: Na materiale russkogo i angliyskogo yazykov. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Moskva.
7. Gafur, G. (2015). *A naughty boy*. Tashkent: 'A New Generation' Publishing House.
8. Gafur, G. (2017). *A naughty boy*. Tashkent: 'A New Generation' Publishing House.
9. Gerbert, U. (1993). *Doktor Moro oroli*. Toshkent: "Navro‘z" nashriyoti.
10. Irisqulov, M. (1992). *Tilshunoslikka kirish*. Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyoti.
11. Izard, K.E. (2008). *Psixologiya emotsiy*. Sankt Peterburg: Piter.
12. Kushnina, L.V. (2006). Vzaimodeystvie yazykov i kultur v perevodcheskomprostranstve. *Diss. dok. fil. nauk*. Perm.
13. Layonz, J. (1978). *Vvedenie v teoreticheskuyu lingvistiku*. Moskva: Progress.
14. Maugham, S. (1951). *The complete short stories of W. Somerset Maugham*. UK: William Heinemann Ltd.
15. Maugham, S. (2005). *Theatre*. Sankt-Peterburg: KARO.
16. Maugham, S. (2013). *The moon and sixpence*. Sankt-Peterburg: KARO.
17. Moem, S. (1985). *Izbrannie proizvedeniya v 2-x tomax*. Moskva: Raduga.
18. Moem, S. (2012). *Oy va sariq chaqa*. Toshkent: "Davr Press" nashriyoti.
19. Moem, S. (2013). *O‘tkinchi ehtiros*. Toshkent: "Dizayn Press" nashriyoti.
20. Moem, S. (2014). *Yomg‘ir*. Toshkent: Akademnashr.
21. Moem, S. (2018). *Ajal ta‘qibi*. Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti.
22. Moem, S. (2018). *Omadi chopgan musavvir*. Toshkent: "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti.

23. Tixomorov, O.K. (1984). *Psixologiya mishleniya*. Moskva: Izdatel'stvo Moskovskogo universiteta.
24. Wells, H.G. (1896). *The island of Doctor Moreau*. UK: Global Grey.
25. Vlastov, S., & Florin, S. (1980). *Neperevodimoe v perevode*. Moskva: Mejdunarodnye otnosheniya.
26. Xakimova, Sh.R. (2014). *Priemy perevoda internatsionalnix realiy*. Materiali II Mezhdunarodnaya nauchnaya konferentsiya "Filologiya i lingvistika v sovremennom obvestve" (ss. 179-181). Moskva: Buki-Vedi.
27. *O'zbek tiling izohli lug'ati*. (2006). Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
28. Shaxovskiy, V.I. (1983). *Emotivniy komponent znacheniya i metodi ego opisaniya*. Volgograd: VGPI.
29. Shaxovskiy, V.I. (1987). *Kategorizatsiya emosiy v leksiko-semanticheskoy sisteme yazyka*. Voronej: VU.
30. Chironov, S.V. (2004). Onomapoeticheskie slova v sovremennom yaponskom yazyke. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Moskva.

REFERENCES

1. Aliboyeva, N.M. (2021). Comparative study of imitation words in Uzbek and English languages. *PhD thes. philol. scien*. Andijan.
2. *An explanatory dictionary of the Uzbek language*. (2006). Tashkent: 'National Encyclopedia of Uzbekistan' State Scientific Publishing House.
3. Aznaurova, E.S. (1973). *Essays on the stylistics of the word*. Tashkent: 'Science' Publishing House.
4. Butaev, Sh., & Iriskulov, A. (2009). *English-Uzbek, Uzbek-English dictionary*. Tashkent: 'Science' Publishing House.
5. Chironov, S.V. (2004). Onotapoetic words in modern Japanese. *Abs. diss. philol. scien*. Moscow.
6. Draiser, T. (2007). *Sister Carrie*. Tashkent: 'East' Publishing House.
7. Draiser, T. (2020). *Sister Carrie*. UK: Global Grey.
8. Fatyukhin, V.V. (2000). Features of the translation of onomatopoeia and interjection verbs: Based on the material of Russian and English languages. *Abs. dis. cand. philol. scien*. Moscow.
9. Gafur, G. (2015). *A naughty boy*. Tashkent: 'A New Generation' Publishing House.
10. Gafur, G. (2017). *A naughty boy*. Tashkent: 'A New Generation' Publishing House.
11. Herbert, W. (1993). *The island of Doctor Moreau*. Tashkent: 'Navruz' Publishing House.
12. Iriskulov, M. (1992). *Introduction to linguistics*. Tashkent: 'Teacher' Publishing House.
13. Izard, K.E. (2008). *Psychology of emotions*. Saint Petersburg: Peter.
14. Khakimova, Sh.R. (2014). Techniques for translating international realities. Materials of the International Scientific Conference 'Philology and Linguistics in Modern Society' (pp. 179-181). Moscow: Buki-Vedi.
15. Kushnina, L.V. (2006). Interaction of languages and cultures in the translation space. *DSc thes. philol. scien*. Perm.
16. Layonz, J. (1978). *Introduction to theoretical linguistics*. Moscow: Progress.
17. Maugham, S. (2014). *Rain*. Tashkent: Academpress.
18. Maugham, S. (1951). *The complete short stories of W. Somerset Maugham*. UK: William Heinemann Ltd
19. Maugham, S. (1985). *Selected works in 2 volumes*. Moscow: Rainbow.
20. Maugham, S. (2005). *Theatre*. Saint Petersburg: KARO.
21. Maugham, S. (2012). *The moon and sixpence*. Tashkent: 'Period' Press.
22. Maugham, S. (2013). *A passing passion*. Tashkent: 'Design' Press.
23. Maugham, S. (2013). *The moon and sixpence*. Saint Petersburg: KARO.

24. Maugham, S. (2018). *A lucky artist*. Tashkent: 'Sparks of Literature' Publishing House.
25. Maugham, S. (2018). *The pursuit of death*. Tashkent: 'A New Generation' Publishing House.
26. Shakhovsky, V.I. (1983). *Emotive component of meaning and methods of its description*. Volgograd: VSPI.
27. Shakhovsky, V.I. (1987). *Categorization of emosia in the lexical-semantic system of language*. Voronezh: VU.
28. Tikhomorov, O.K. (1984). *Psychology of thinking*. Moscow: Moscow University Publishing House.
29. Vlahov, S., & Florin, S. (1980). *The untranslatable in translation*. Moscow: International relations.
30. Wells, H.G. (1896). *The island of Doctor Moreau*. UK: Global Grey.